




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

FOLKLOR ADABIYOTINING MILLIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNI
**THE ROLE OF FOLKLORE LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL
THOUGHT**

Mohlaroyim IZZATOVA,
Jumabek Tashenov nomli
Qozog'iston universiteti talabasi
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/REYL3450

Annotation. *This thesis scientifically and theoretically analyzes the role of folklore in the formation and development of Uzbek literature. Folklore is interpreted as an important artistic source reflecting the historical memory, spiritual values, and aesthetic thinking of the people. The study also reveals the manifestation of folk images, symbols, and elements of national consciousness in modern Uzbek literature through new aesthetic interpretations. Furthermore, the thesis substantiates the significance of the artistic continuity between folklore, classical literature, and contemporary literature in preserving national identity and ensuring the continuity of spiritual heritage.*

Key words: *folklore, classical literature, modern literature, national consciousness, artistic heritage, oral folk art, aesthetic interpretation, spiritual values.*

O'zbek adabiyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida xalq og'zaki ijodi — folklor alohida o'rin tutadi. Folklor xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, orzu-intilishlari hamda ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan badiiy-estetik meros sifatida namoyon bo'ladi. Folklorshunos olimlarning ta'kidlashicha, xalq og'zaki ijodi millatning tarixiy xotirasini saqlovchi va avlodlararo ma'naviy vorislikni ta'minlovchi muhim madaniy omildir [Karimov 2010:15]. Shu bois folklor namunalari nafaqat estetik zavq uyg'otuvchi badiiy hodisa, balki xalq tafakkurining ijtimoiy-falsafiy ifodasi sifatida ham qadrlanadi.

Aynan ana shu boy ma'naviy manba keyinchalik mumtoz adabiyot va zamonaviy o'zbek adabiyotining rivojlanishiga ma'lum o'rin tutadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida xalq maqollari, afsona va rivoyatlar poetik tafakkur manbai sifatida qayta talqin qilinadi [Hayitmetov 1979:42]. Mumtoz adabiyotdagi obrazlar tizimi, ramziy ifoda va axloqiy-didaktik qarashlarning muayyan qismi folklor motivlari asosida shakllanganligi, bu esa folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi uzviy badiiy aloqadorlikni ta'minlaydi.

Bugungi adabiy jarayonni folklorisiz va mumtoz merossiz tasavvur qilish qiyin. Chunki zamonaviy o'zbek adabiyotida ham milliy ruh, tarixiy xotira va an'anaviy obrazlar folklor hamda mumtoz adabiyot asosida yangicha estetik talqinda namoyon bo'lmoqda [Qo'shjonov 2002:63]. Adabiyotshunoslarning fikriga ko'ra, milliy tafakkurning taraqqiyoti adabiy merosning uzluksiz davomiyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi vorislik milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim omil hisoblanadi [Rasulov 1998:21]. Shuningdek, folklor va yozma adabiyotning o'zaro ta'siri natijasida milliy estetik ideal, qahramonlik konsepsiyasi hamda insonparvarlik g'oyalari shakllanadi. Ayniqsa, dostonchilik an'analari va xalq qahramonlari timsoli keyingi davr adabiyotida badiiy tafakkurning muhim komponentiga aylangan. Shu jihatdan qaralganda, folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi badiiy aloqalar milliy tafakkur taraqqiyotining muhim ma'naviy-estetik asosini tashkil etadi.



Folklor insoniyatning ilk badiiy tafakkuri mahsuli sifatida shakllangan bo‘lib, unda insonning tabiat, jamiyat va borliq haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan. Folklorshunos olimlarning ta’kidlashicha, xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyot paydo bo‘lishidan ancha oldin yuzaga kelgan va xalqning estetik tafakkuri hamda ma’naviy dunyosini ifodalovchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi [Jo‘rayev 2008:14].

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarkibiga ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, afsona va rivoyatlar kiradi. Mazkur janrlar xalqning ma’naviy olamini aks ettirib, yosh avlodni ezgulikka, vatanparvarlikka, jasorat va insonparvarlikka chorlab kelgan. Shu jihatdan folklor tarbiyaviy-estetik vazifani bajaruvchi muhim madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq dostonlari, xususan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish” kabi asarlar xalq ruhiyati va milliy qahramonlik timsollarini yaratishda katta ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ushbu dostonlarda xalqning erkinlik, adolat va mardlik haqidagi ideallari badiiy obrazlar orqali ifodalangan [Imomov 1994:44]. Ayniqsa, “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining milliy qahramonlik eposi sifatida xalqning ijtimoiy-ma’naviy qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Undagi qahramon obrazi nafaqat jismoniy kuch timsoli, balki vatan va oilaga sadoqat ramzi sifatida ham talqin qilinadi [Mirzayev 1999:27]. Folklorda uchraydigan obrazlar, ramzlar va badiiy ifodalar keyingi yozma adabiyot uchun mustahkam zamin yaratgan. Xususan, mumtoz adabiyotdagi ko‘plab poetik timsollar va xalqona tasvir vositalari folklor an‘analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, xalqona tilning ravonligi, iboralarning obrazlilik va qahramonlarning hayotiyliigi o‘zbek adabiyotining tabiiy hamda ta’sirchan rivojiga xizmat qilgan. Adabiyotshunoslarning qayd etishicha, folklor tilining soddaligi va emotsional ta’sir kuchi yozma adabiyot uslubining xalqchil ruhda shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [Rasulov 2001:39].

Folklorning yana bir muhim jihati shundaki, unda xalqning tarixiy xotirasi saqlanib qolgan. Shu sababli folklor nafaqat badiiy hodisa, balki milliy o‘zlikni anglash vositasi hamdir.

Mumtoz o‘zbek adabiyoti vakillari xalq og‘zaki ijodidan keng foydalanganlar. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi ijodkorlarning asarlarida folklor ruhini yaqqol ko‘rish mumkin. Ayniqsa, Alisher Navoiy xalq maqollari, hikmatli iboralar va xalqona tasvirlardan mohirona foydalangan. Mumtoz adabiyotda folklor elementlari ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi — xalqona syujet va obrazlarning qo‘llanishi bo‘lsa, ikkinchisi — xalq tiliga yaqin badiiy ifodaning ishlatilishidir. Bu hol adabiyotning xalqchil ruhini kuchaytirgan.

Bugungi o‘zbek adabiyotida ham folklor va mumtoz adabiyot an‘analari izchil davom etmoqda. Zamonaviy ijodkorlar xalqona obrazlar, ramzlar hamda milliy badiiy tafakkur unsurlaridan foydalanib, bugungi davrning ijtimoiy va ma’naviy muammolarini yoritishga intilmoqdalar. Xususan, O‘tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Tog‘ay Murod kabi ijodkorlar asarlarida xalq ruhiyati, milliy qadriyatlar va tarixiy xotira masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Adabiyotshunoslarning fikricha, zamonaviy o‘zbek adabiyoti milliy an‘ana va zamonaviy estetik tafakkurning sintezi asosida rivojlanmoqda.

Hozirgi adabiyotda folklor unsurlari yangi badiiy shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, xalqona iboralar, afsona va rivoyatlardan ramziy hamda metaforik ma’noda foydalanish zamonaviy asarlarning badiiy ta’sirchanligini oshirmoqda [Rasulov 2002:70]. Shu bilan birga, yozuvchilar mumtoz adabiyot an‘analarini zamonaviy ruh bilan boyitib, yangi poetik tafakkurni shakllantirmoqdalar. Masalan, zamonaviy she’riyatda tasavvufiy ramzlarning yangi estetik talqinda qo‘llanishi yoki xalq dostonlariga xos qahramonlik motivlarining yangicha ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan boyitilishi kuzatiladi. Bu holat milliy adabiyotning tarixiy ildizlarga tayangan holda yangilanayotganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda inson ruhiyati, ma’naviy inqiroz, axloqiy tanazzul va global muammolar folklor hamda milliy qadriyatlar asosida talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, zamonaviy adabiyotda folklor motivlarining qo‘llanishi milliy mentalitet va madaniy identifikatsiyani saqlashning muhim vositasi sifatida

namoyon bo'lmoqda [Yo'ldoshev 2013:33]. Shu sababli bugungi adabiyotda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi yetakchi estetik tamoyillardan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyot bir-birini boyituvchi uch muhim ma'naviy qatlam hisoblanadi. Ularning o'zaro uyg'unligi milliy tafakkurning uzviy davomiyligini ta'minlaydi.

Folklor xalqning tarixiy ildizi va ma'naviy xotirasini ifodalasa, mumtoz adabiyot ushbu ma'naviyatning falsafiy-estetik yuksalish bosqichini aks ettiradi. Zamonaviy adabiyot esa ana shu ko'p asrlik badiiy tafakkurning bugungi davrdagi yangi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi [Hayitmetov 1989:18]. Mazkur uch qatlamning mushtarakligi milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy adabiyot va folklorni o'rganish yosh avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi muhim omil sifatida baholanmoqda. Chunki folklor va mumtoz meros insonni milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va ma'naviy poklik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Shu bois adabiy merosni o'rganish nafaqat filologik, balki ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ham egadir.

Adabiyot insonni ma'naviy kamolotga yetaklovchi estetik kuch sifatida qadrlanadi. Folklor esa ana shu ma'naviyatning eng tabiiy va samimiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun folklor va mumtoz merosni chuqur o'rganish zamonaviy adabiyot taraqqiyoti uchun ham muhim nazariy va badiiy asos vazifasini bajaradi. Bu esa milliy tafakkur taraqqiyoti va ma'naviy meros davomiyligini ta'minlashda adabiyotning beqiyos o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, folklor o'zbek adabiyotining boshlang'ich va asosiy manbalaridan biridir. Mumtoz adabiyot ushbu boy merosni badiiy jihatdan yuksaltirgan bo'lsa, zamonaviy adabiyot uni yangi ruh va yangi talqinlarda davom ettirmoqda. Folklor, mumtoz va hozirgi adabiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik milliy tafakkur, ma'naviyat va badiiy estetikani rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli bu merosni o'rganish va targ'ib qilish kelajak avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. O'zbek folklorshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Хайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент, 1979.
3. Qo'shjonov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida an'ana va yangilanish. – Toshkent, 2002.
4. Расулов А. Адабий ворисийлик ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 1998.
5. Имомов К. Ўзбек халқ достонлари поетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
6. Jo'rayev M. Folklor nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2008.
7. Мирзаев Т. Алпомиш достони ва халқ эпик тафаккури. – Тошкент: Фан, 1999.
8. Саримсоқов Б. Ўзбек фолклорининг тарихий асослари. – Тошкент: Фан, 1987.
9. Хайитметов А. Ўзбек мумтоз адабиёти ва фолклор. – Тошкент: Фан, 1985.
10. Комилов Н. Тасаввуф ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Ёзувчи, 1996.

